

O'RTA TA'LIM MANTABLARDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH VA XORIJIY TILNI O'RGATISH.

Fayzullayeva Dilnoza

Scientific advisor.

Vosijonova Malikaxon

Students.

Toshboltayeva Nilufar

Samarkand State Institute of Foreign Language.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11316236>

Annotatsiya. Zamonaviy rivojlangan davrda maktablarda xorijiy tilni o'rgatishda yuzagan kelaidgan muammolarni yechimini izlagan holda, bolalarga zamonaviy texnologiyadan unumli foydalanish, kelgusida zamonaviy o'qituvchi uchun qo'yiladigan talablarga javob bergan holda, ta'limda inovatsion usullarni qo'llagan holda dars o'tish, xorijiy tillarni o'rgatishdagi ijobiy ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash zamon talabi bo'lib kelmoqda.

Kalit so'zlar: texnologiya, inovatsiya, Zoom platformasi, Moodle, internet, xorijiy til, instructor, STEAM, Massachusetts.

USING MODERN TECHNOLOGY AND TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN SECONDARY SCHOOLS

Abstract. Looking for solutions to the problems that arise in teaching a foreign language in schools in the modern, developed era, effective use of modern technology for children, meeting the requirements for a modern teacher in the future, using innovative methods in education, improving the positive indicators of teaching foreign languages is the need of the hour.

Keywords: technology, innovation, Zoom platform, Moodle, internet, foreign language, instructor, STEAM, Massachusetts.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ПРЕПОДАВАНИЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В СРЕДНИХ ШКОЛАХ

Аннотация. Поиск решения проблем, возникающих при обучении иностранному языку в школах в современную развитую эпоху, эффективное использование современных технологий для детей, удовлетворение требований, предъявляемых к современному учителю будущего, обучение с использованием инновационных методов в образовании. Назрела необходимость дальнейшего улучшения положительных показателей в преподавании иностранных языков.

Ключевые слова: технологии, инновации, платформа Zoom, Moodle, интернет, иностранный язык, преподаватель, STEAM, Массачусетс.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan, ta'lim rivoji uchun amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi o'laroq, kundan kunda mamlakatimizdagi chekka hududlardan tortib toki markaziy hududlardagi o'rta ta'lim dargohlarida xorijiy tilni o'rgatishda, ularga qo'yiladigan talablar yanada dolzarb vazifa sifatida o'qituvchilar zimmasiga yuklatilgan.

Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev shunday degan edilar: "Biz ota-onalar bilan yetarlicha ishlay olmayapmiz. Toki ularning maktabga, ustozga munosabati o'zgarsin. Men

Janubiy Koreya islohotlarini ko'p o'rganaman. Ular 50-60 yil oldin juda qiyin vaziyatdagi kambag'al davlat bo'lgan.

Oltini yo'q, misi yo'q, nefti yo'q kichkinagina davlat bugun iqtisodi bo'yicha o'ntalikka kirgan. Zamonaviy texnologiyalar bo'yicha esa mutlaq yetakchi. Ular ham qiyin davrlarni o'tkazishgan. Qaysiki o'quvchi maktabga bormasa, eshigini taqillatib "Sen jamiyatga qarshi ish qilyapsan" deya tushuntirishgan. Biz afsuski ana shunday ishlay olmaypmiz".

Darhaqiqat, har bir hududda ta'limda texnologiy jarayonlar yanada jadal rivojlanmoqda, bunga sabab esa globalizm zamonida, axborot-texnologiya rivojlangan asr bilan hamnafas birgalikda yashayotganimiz tufaylidir. Texnologiya so'zi grekcha: „techno“ – hunar, usta va „logos“ – fan, ta'lim ma'nosini anglatadi. Ta'limda texnologiyadan foydalanish Kovid pandemiyasidan keyin yanada jadal rivojlanib, insonlarga undan kengroq foydalanishga turtki berdi. Shuningdek, ta'limda texnologiyadan foydalanish dastlab Aqshda paydo bo'lgan, hozirga kelib butun dunyodagi ta'lim dargohlarida STEAM ta'lim tizimi mavjud. Bu ta'lim tizimida STEAM so'zning qisqacha ma'nosida quyidagicha:

S — science, T — technology, E — engineering, A — art va M — math. Ingliz tilida bu so'zlar mana shunday ma'noni beradi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Bu yo'nalishlar hozirgi kunga juda ham ommabop bo'lib ulgurgan. Har bir ta'lim dargohi sekin asta shu tizim asosida qayta tashkillashtirilib borilmoqda. STEAM asosida tahsil oladigan bolalar ham nazaiy, ham amaliy bilim oladilar, bir vaqtini o'zida ham miyalarini, shuningdek jismoniy qobiliyatlarini ham birlashtirib, foydali bilimni o'rganishadi. Bolalar bu tizimda bilim olib, keyinchalik uni amaliyotda qo'llaydilar.

STEAM asosidagi oliy dargohlardan biri masalan Massachusetts texnologiya dargohi sanaladi, Bu ilm dargohing shiori lotinchada: "Mens et Manus" ya'ni aql va qo'l degan ma'noni anglatadi. Bu shiorni o'zidan ko'rinadiki, yosh avlod o'sishi uchun hammasi tayyor va hamohang qilingan. Masalan Osiyo taraqqiyot banki yurtimizda STEAM tizimini rivojlantirish, uni 2030-yilgacha yangi bosqichga olib chiqish uchun ham 100 mln dollar mablag' ajratgan. Bu raqamdan ma'lumki, mamlakatimizda yoshlar uchun har jihatdan imkoniyatlar bor. Bundan tashqari yurtimizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida xorijiy tilni yanada yaxshiroq o'rgatish uchun audio-lingual uslubdan foydalanib, maktabda tinglash, gapirish ko'nikmasini yanada rivojlantiruvchi, CD disklar, ovoz kuchaytiradigan apparatdan foydalangan holda ilg'or texnologiya asosida darslar tashkil qilinadi. Bundan tashqari youtube platformasidan foydali kontentlarni ajratib, foydali link, mashg'ulotlar uchun vazifalar ta'lim dargohlaridagi onlayn platformalarda joylanadi. Har bir talaba Hemis, Moodle kabi platformalardan o'ziga kerakli kontentni yuklab, foydalanib, o'rgangan narsasini yanada chuqur anglab yetadi. Darslarda SVOD metodi, turli klasterlar, posterlar tayyorlab, taqdimotlar yasab, berilgan vazifalarni yanada tezroq, yaxshiroq bajarish mumkin.

Chunki ba'zida maktabda mavzuni eshitib o'tirishdan ko'ra o'quvchi, uni amaliyotga to'liq tadbiq etilgan variantini tomosha qilish yanada qiziqroq, tomosha qilishdan ko'ra uni o'zida amalda bajarishi orqali ham o'rganuvchi uchun yaxshigina muvaffaqiyatga erishsa bo'ladi degan fikrlar bor. Yurtimizdagi maktablarda xorijiy tillarni namunaviy adabiyotlar asosida zamonaviy texnologiyani qo'llab dars o'tish usuli bolalarni bilim olishiga ko'proq imkon yaratib, ularni til

o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradi. Bundan tashqari Montessori metodikasi asosida ko'plab maktablarida Finlandiya ta'lim tizimini olib kirish orqali ko'plab yutuqlarga erishilmoqda.

Prezident maktablarida juda ko'plab yoshlarimiz hali yosh bo'lishiga qaramay, xalqaro til darajasini tasdiqlovchi IELTS, TOEFL kabilardan yuqori natijalarni qayd etishmoqda. Buni natijasi o'laroq, bu ta'lim tizimimizda olib borilgan keng imkoniyatlar samarasi tufayli yuzaga chiqmoqda.

REFERENCES

1. Basilaia, G. & Kvavadze, D. (2020): Transition to online education in schools during a SARS-CoV-2 coronavirus (COVID-19) pandemic in Georgia. *Pedagogical Research*, 5(4), 10-18.
2. Ebner, M., Schon, S., Braun, C., Grigoriadis, Y., Haas, M., Leitner, P. & Tapaghi, B. (2020): Covid-19 epidemic as e-learning boost? Chronological development and effects at an Austrian university against the background of the concept of "e-learning readiness". *Future Internet*, 12, 94-114
3. Hampsten, K. (2021): Embracing discomfort and resisting a return to "the good old days": A call to communication educators. *Forum: Pandemic pedagogy and student learning. Communication Education*, 70(2), 208-210.
4. Iyer, P., Aziz, K. & Ojcius, D. M. (2020): Impact of COVID-19 on dental education in the United States. *Journal of Dental Education*, 84, 718-722.
5. Rapanta, C., Botturi, L., Goodyear, P., Guardia, L. & Koole, M. (2020): Teaching during and after Covid-19 crisis: Refocusing teacher presence and learning activity. *Postdigital Science and Education*, 2(3), 923-945.
6. Rizun, R. & Brown, C. (2020): The Covid-19 pandemic and the dissolution of the university campus: Implications for student support practice. *Journal of Professional Capital and Community*, 5(3/4), 343-349.
7. Singh, J. & Matthews, B. (2021): Facilitating inter professional education in an online environment during the COVID-19 pandemic: A mixed method study. *Healthcare*, 9(5), 567-574.
8. Subedi, S., Nayaju, S., Subedi, S., Shah, S. K. & Shah, J. M. (2020): Impact of e-learning during COVID-19 pandemic among nursing students and teachers of Nepal. *International Journal of Science and Healthcare Research*, 5(3), 68-76